

ISLOM SIVILIZATSIYASI VA XITOIY MADANIYATINING O'ZARO UYG'UNLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11493184>

Ziyodaxon Yo'ldoshboy Faxriddin qizi

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi,

"Islom sivilizatsiyasi" yo'nalishi

2-kurs magistranti, +998977329933

Annotatsiya

Maqolada musulmon va xitoy madaniyatlarida uchraydigan umumiy o'zaro o'xshash sharqona madaniyat namunalari qiyosiy ko'rsatib o'tildi. Islom dini ko'rsatmalari'da avvalo Qur'on va hadislarga suyanilishi, konfutsiylik ta'limotida esa Konfutsiyning eng mashhur asari "Suhbatlar va munozaralar" asarlari haqida to'xtalib o'tildi. Ikki madaniyatda ham yaqqol namoyon bo'luvchi keng tarqalgan pand-nasihatlardan namunalar keltirildi. Xulosa o'rnida sivilizatsiyalar nafaqat keltirilgan ushbu ikkisida balki boshqa barcha sivilizatsiyalarda umumiy qarashlar, ezgulikka chorlov, kattalarga e'tibor, atrof-muhitga g'amho'rlik bilan munosabatda bo'lish kabi insonparvarlik ruhidagi targibotlarga asoslanishi xulosa qilindi.

Kalitsoz

Islom, Quron, Konfutsiylik, din, ta'limot, ierarxiya, odob-axloq, sharqona madaniyat.

Musulmonlarning muqaddas kitobi va bosh dastur-ul amali bo'lgan Quro'ni Karimning

Hujurot surasi 13-oyatida shunday deyilgan:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَاكُمْ مِنْ ذَكَرٍ وَأُنْثَىٰ وَجَعَلْنَاكُمْ شُعُوبًا وَقَبَائِلَ
لِتَعَارَفُوا إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِنْدَ اللَّهِ أَتَقْوَاهُ إِنَّ اللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٌ ﴿١٣﴾

"Ey odamlar, Biz Sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik va Sizlarni o'zaro tanishishingiz uchun xalqlar va qabilalar qilib qo'ydik. Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor Zotdir".¹⁰

Har bir jamiyat, millat, hukumat, yoki sektalar mana shu jarayonni ichida ya'ni bir-birlaridan qandaydir sohalarni o'rganish va o'zaro tanishish uchun turli

¹⁰ Тафсири ҳилол 5-жилд. 515-б. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2009. "Sharq" НМАК.

darajada harakat qilib, o'zaro tajribalarini bo'lishib hayot kechirib kelganlar va ayniqsa hozirgi globalizatsiya davrida bu yanada rivojlanib bormoqda. Buning uchun yuqorida keltirilgan musulmonlarniki kabi boshqa xalqlarning ham bu jarayon uchun qandaydir motivlari bor.

Mintaqamizga 7-asrda islom dini kirib kelganidan buyon mintaqa aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilib keladi. Shu bilan birgalikda musulmon savdogarlari, olimlari boshqa hududlarga savdo ishlari bilan sayohat qilib, sayohatlari davomida boshqa din va millat vakillarining hayotini, turmush tarzini, ularning geografiyasini o'rganib, ko'rgan-kechirganlari asosida turli sayohatnomalar, geografik-tarixiy asarlar yozib qoldirganlar. Bunday yo'llardan eng yirigi Xitoy hududidan boshlanib to Yevropa qit'asiga yetgungacha bizning mintaqamizdan kesib o'tgan tarixiy Buyuk Ipak Yo'li karvon yo'lidir.¹¹ Bu yo'l bog'lovchi vazifasini o'tagan ikki mintaqa madaniyatini, ya'ni, tarixda aholisi asosan buddaviylik diniga e'tiqod qilgan, hozirda esa katta qismi dinsiz bo'lgan xitoy madaniyati va musulmonlardan tashkil topgan Markaziy Osiyo mintaqasi madaniyatlarini o'zaro qiyosiy o'rganishni muhim deb bilamiz. Shu boisdan ham musulmon olami madaniyati va xitoy madaniyatlarini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil etish va ularni ochib berish maqsad qilib belgilandi.

Buyuk Ipak yo'li Sariq dengizdan to O'rta Yer dengiziga qadar yetadigan bir qator keng qamrovli ichki savdo yo'llari bo'lib, miloddan avvalgi 1000-yildan buyon foydalanib kelingan va ming yillar davomida xizmat qilib kelgan. Bu uzoq davr mobaynida karvon yo'lida qatnagan savdogarlarning ko'pchiligi musulmon bo'lib, Sharqqa qarab harakatlanganlar. Bu savdogarlar nafaqat o'z yurtlarining mollarini olib kelishgan, balki Sharqiy Osiyoga o'z madaniyati va e'tiqodlarini ham olib kirishgan. Islom «7–10-asrlarda urush, savdo va diplomatik almashuvlar orqali» asta-sekin Buyuk Ipak yo'li bo'ylab tarqala boshlagan ko'plab dinlardan biri edi.

Madaniyatlar haqida gap ketganda, xitoy sivilizatsiyasini Konfutsiylik ta'limotisiz o'rganib bo'lmaydi. Konfutsiy miloddan avvalgi 6-5-asrlarda yashab o'tgan mashhur faylasuf bo'lib, uning qarashlari Xitoyliklar orasida hozirgacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Uning qarashlari shu qadar teran bo'lganki, 100lab shogirdlari uning atrofida ta'lim olib birga hayot kechirganlar. Kunlarning birida shogirdlar ustozlaridan shunday mazmundagi savol so'raydilar,—"Ustoz, nega biz sizni har bir qilgan amalingizni siz qilgandan ko'proq takrorlayapmiz, lekin siz erishgan natijaga erisha olmayapmiz?",- deya so'ragan savollariga u shunday

¹¹ Аблат Хўжаев. "Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар" 104-б. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" ДИН. Тошкент-2007.

mazmunda javob beradi, ya'ni, "Men uhlaganimda uhlayman, taomlanganimda taom yeyman, mutolaa qilayotganimda mutolaa qilaman, yurganimda yuraman, sizlar esa taomlanganingizda mutolaa qilasiz, mutolaa qilganingizda uhlaysiz, diqqatingiz qilayotgan ishingizda bo'lmaydi"-degan mazmunda javob beradi. Uning mashhur "Lunyu" asari bo'lib, o'zbek tiliga "Suhbatlar va munozaralar" deb tarjima qilingan. Balki, hudud jihatdan qo'shni bo'lgani uchun xitoy donishmandlari va markaziy osiyolik o'rta asrlar so'fiylarining o'xshash ta'lim-tarbiya uslublariga juda ko'plab misollar keltirish mumkin.

Mana shu omillar e'tiborga olingan holda yaratilgan "Han kitob"i islom va konfutsiylik an'analarini sintez qilgan xitoycha islom matnlari to'plami bo'lib, xitoylik musulmonlar tomonidan XVIII asr boshlarida Ching sulolasi davrida yozilgan. "Han" deganda han-xitoy millatini nazarda tutadi. "Kitab" esa arabcha so'zda beriladi. Lyu Chji o'zining "Han kitob"ini 18-asr boshlarida Nankinda yozgan. Vu Sunxie, Chjan Zhong va Van Daiyu asarlari ham Han kitobiga kiritilgan. "Han kitobi" keyingi Xitoy musulmonlari, jumladan, Ma Qixi, Ma Fuxiang va Xu Sonshanlar tomonidan keng o'rganilgan va ma'qullangan. Ular islom dinini konfutsiylik orqali tushunish mumkin, deb hisoblashgan. Bu fikrga biz ham qo'shilamiz. Uning mashhur "论语" (lunyu) kitobi hozirgacha turli tillarga tarjima qilinib kelinadi. O'zbek tiliga esa, "Suhbatlar va munozaralar" deb tarjima qilingan. Quyida ushbu kitobdan keltirilgan misollar bilan 2 mintaq xalqlari urf-odatidagi ayrim o'xshashliklarni dalillashga harakat qilamiz.

Konfutsiy asosan atrofida jamlangan shogirdlariga nasihat qilishdan avval namuna bo'lishni afzal ko'rganligi bilan tahsinga sazovordir. Ushbu asarning 4-8 qismida keladiki, 子曰：「朝聞道，夕死可矣 (Zi yue: Cháo wén dào, xī sǐ kě yǐ). "Tongda agar inson to'g'ri yo'lni eshita olsa, kechqurun afsussiz bu dunyodan o'tishi mumkin"- deb tarjima qilinadi. Ya'ni, avvalo bu qisqa berilgan gapda tongda ertaroq turishga targ'ib qilinyapti, undan so'ng hayotiy maqsadni anglash, kunlik rejalarini to'g'ri tuzish, ushbu rejalar bo'yicha duo-zikrlar qilish jamlanib keladi. Qalb uyg'oq bo'lganda, inson to'g'ri yo'lni topadi, afsus qiladigan g'aflat holida kunni yakunlamaydi demoqchi bo'ladi, hamda agar shu kechasi vafot etsa hech qanday afsus-armonsiz vafot etadi degan ma'noni oz so'z bilan ifoda etadi. Ushbu chaqiriqni islom dini buyruqlari va hadislardan ham topishimiz mumkin. Xususan, Imom Buxoriy qilgan rivoyatda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam "Kim Sayyidul istig'for: «Allohumma anta robbiy laa ilaaha illa anta xolaqtaniy va ana 'abduka va ana 'ala 'ahdika va va'dika mastato' tu a'uzu bika min sharri maa sona' tu, abu'u laka bini'matika 'alayya va abu'u bizambiy fag'firliy fainnahu laa yag'firuz zunuba illa anta» ni kechki payt aytib, shu kuni vafot etsa, jannatga kiradi. Kim tongda aytib,

shu kuni vafot etsa, unda ham jannatga kiradi», dedilar. Yoki, yana bir Konfutsiy hikmatida

Konfutsiy aytadi: “Siz o’zingiz qilishni yoqtirmaydigan ishni, boshqalarga qoldirmang.”

Huddi shu ma’noda esa quyidagi hadisni keltirish mumkin bo’ladi:

Sahihi Buxoriy, 2-kitobi, 6-hadisda keltirilishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sizlardan biringiz o’zi uchun yaxshi ko’rgan narsani birodariga ham tilamagunicha haqiqiy iymon keltirmaydi”, -dedilar.

Bunda Konfutsiy bajaradigan ish deb aytayotgani, yeyish, kiyish, mehnat qilish kabi haqiqatda jismoniy ish-amal bo’lsin, yoki, gapirish, duo qilish, tilak tilash, orzu qilish kabi majoziy ma’nodagi ish-amal bo’lsin birovgam ham o’zingga bo’lishini xohlamagan narsang bo’lsa, boshqaga ham uni qoldirma, boshqa insonga bo’lishini tilama degan ma’noda tushunish mumkin. Yuqoridagi hadis ham aynan shunga targ’ib qiladi, ya’ni agar haqiqiy mo’min bo’lishni istasangiz, haqiqiy iymon ta’mini totmoqchi bo’lsangiz o’zingizga ravo ko’radigan narsanigina birovgam ham tilang degan ma’no berilmoqda. Konfutsiy yashagan davrdan islom dini paydo bo’lgunicha oradan 10 asrdan ko’proq vaqt o’tgan bo’lsa-da, bu qadar o’xshash ta’limiy pand-nasihatlar deyarli o’zgarmaganligini ko’rish mumkin. Aslida, barcha din va ta’limotlar insonlarni, jamiyatlarni go’zal odob-axloqqa chorlashni asosiy vazifasi deb biladi. Biz taqqoslab o’rgangan ushbu madaniyatlar ham buning yorqin namunasi deyishimiz mumkin. Xulosa qilish mumkinki, Islom va konfutsiylik ta’limotidagi o’xshashliklar ham bejizga emas, zero islom ta’limotiga ko’ra yagona Yaratuvchi-Alloh sivilizatsiyalarni-shariatlarni borgan sari rivojlangan shaklda insoniyatga yuboravergan. Bu bilan konfutsiylik bir shariat deya tushunilmasligi kerak. Konfutsiylik falsafiy bir ta’limot bo’lib, qadimgi sivilizatsiyalardan biri –xitoy sivilizatsiyaning asosiy o’zaklaridan biri hisoblanadi. U o’zini asosida “ren” ya’ni, “insonni o’zligi”ni anglashga chaqiradi, buni ham islomiy “ruh”, “qalb” atamalari bilan qiyoslash mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Тафсири хилол 5-жилд. 515-б. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. 2009. “Sharq” НМАК.
2. Аблат Хўжаев. “Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар” 104-б. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДИН. Тошкент-2007.

3. Wroldsen, Kim Jarle (2021). "Let Confucianism and Islam work together: bargaining for a distinct Muslim identity in local propaganda literature". *Asian Ethnicity*. 24 (2): 157–180.
4. Lai, Qing (2020-03-14). "The Making of Sino Muslim Identity: Han Kitab in the Chinese Xidaotang". *Chinese Sociological Review*. 52 (2): 167–198.
5. Benite, Zvi Ben-Dor (2000-01-01), "Follow the white camel: Islam in China to 1800", *The New Cambridge History of Islam*, Cambridge University Press, pp. 409–426.
6. *Interpreting Islam in China: Pilgrimage, Scripture, and Language in the Han Kitab*, Published: 26/10/2017

Internet nashrlari:

7. <https://rowman.com/ISBN/9781666913361/The-Islamic-Confucian-Synthesis-in-China>
8. <https://www.waterstones.com/book/interpreting-islam-in-china/kristian-petersen/9780190634346>
9. <https://www.booktopia.com.au/the-islamic-confucian-synthesis-in-china-zongping-sha/book/9781666913361.html>
10. <https://ru.everand.com/podcast/418340014/Kristian-Petersen-Interpreting-Islam-in-China-Pilgrimage-Language-and-Scripture-in-the-Han-Kitab-Oxford-UP-2017-In-his-monumental-new-book>